

Berilgan namunadan bosma O o harfining bosh va kichik ko'inishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozadilar.

### **Darslik bilan ishlash: (3 daqiqa)**

*1. She'rni o'qing. So'zlardan [o]tovushini toping.*

*4. Rasmga diqqat bilan qarang narsalar orasidan Oo harf shakliga o'xshashlarini aniqlang.*

### **Tinglab tushunish ; (7 daqiqa).**

"Oltin tarvuz" audio ertagi tinglanadi. Ertak mazmuni so'raladi.

### **Daftар bilan ishlsh: (3 daqiqa)**

*1. O o harf shakliga o'xshash narsa rasmini chizing.*

### **Darsga yakun yasash:**

*- Qanday tovush bilan tanishdingiz?*

*- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*

## **6-mavzu: [t] tovushi. Tt harfi**

### **Dars maqsadi:**

- [t] tovushining talaffuzi va Tt harfining bosma shakli bilan tanishadilar ;
- [t] undosh tovush ekanligini bilib oladilar.
- so'zlardan [t] tovushining o'rnini aniqlashni o'rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** omonim so'zlar, ochiq va yopiq bo`g`in, [t ] tovushi,

**Didaktik materiallar:** ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmlli kartochkalar, Toshkent shahri rasmlari

### **Darsning borishi:**

#### **I.Kirish qismi (5 daqiqa)**

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

#### **Faollashtirish mashqi:**



Darslik 16-17 sahifasi

Birgalikda kuylaymiz mashqi: O'qituvchi har bir qator uchu bittadan notani tanlab, uni ko'rsatma bilan navbat bilan kuylashni so'raydi. Masalan: 1-qatordagilar do, 2-qatordagilar mi, uchinchi qatordagilar re. O'quvchilar bir necha marta kuylaganlaridan keyin endi shu notalarni tezroq kuylash so'raladi.

## Asosiy qism (40 daqiqa)

### 1. Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O'qituvchi doskaga ot, it, o't rasmni qo'yadi. O'quvchilardan bu rasmlarni ifodalovchi so'zlarda oxirgi tovushini aniqlashni so'raydi.

*Doskadagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni ifodalovchi so'zlarni oxirgi tovushini aniqlang.*

### Amaliy topshiriqni muhokama qilish:

- *Rasmlarni qanday so'zlar bilan ifodaladingiz?*
- *Oxirida kelgan tovush qanday tovush ekan?*
- *Shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarga misol keltira olasizmi?*

***Javoblar xulosalanib, yangi mavzudagi tovush tushuntiriladi***

### 2. Mavzuni tushuntirish: (10 daqiqa)

[t] undosh tovushlar ekanligi, undosh tovush talaffuzda to'siqqa uchrab qisqa aytlishi, unli bilan birga bo'g'in hosil qilishi haqida tushuncha beradi. Undosh tovush ko'k rangda belgilanishini (ko'k kvadrat shaklni ko'rsatiladi) aytadi.

### **Darslikda berilgan QR kod orqali tovush eshittiriladi.**

Tt harfining bosma ko'rinishi bilan tanishtiriladi. Harflarning uch xususiyati: yozilishi, ko'rish mumkinligi va ularni o'qish mumkinligi aytildi. Xulosada harflar o`qilishi, yozilishi va ularni ko'rish mumkinligi; tovushlarni esa eshitish va talaffuz qilinishi aytildi.

#### **O'qituvchi uchun eslatma:**

T tovushini talaffuzida lablar biroz ochiq, harakatsiz, tinch holatda bo'ladi, tishlar bir-biriga yaqinlashadi, ammo birikmaydi, T tovushi unli "a", "o", "i", "u" tovushlari bilan birgalikda talaffuz etilganda tilning oldingi kurak qismi yuqorigi tishlarga tiralib turadi.

**Darslikda berilgan she'r o'qib beriladi yoki o'qishni biladigan o'quvchilarga o'qitiladi. She'r mazmuni bo'yicha suhbatlashadilar.**

- *She'r nima haqida?*
- *Tt harfi qaysi so'zlarda ishtirok etgan?*



O'quvchilarga bo'g'in hosil qilish tartibini darslikdagi topshiriq orqali tushuntiradi. Bola bir joydan ikkinchisiga yetib olguncha, avval [o] tovushi cho'ziq aytilib, so'ng [t] tovushini qo'shib aytildi. Hosil bo'lgan bo'g'in o'qiladi. - **ot** bo'g'ini yopiq bo'g'in ekanligi aytildi.

[t] undoshini samolyotning uchishi kabi tez talaffuz qilinib, unga [o] unlisi qo'shib aytilganda – **to** ochiq bo'g'ini hosil bo'lishi tushuntiriladi.

**Darslikda berilgan rasmlar asosida so'zlardagi [t] tovushining o'rnini aniqlash tushuntiriladi:**

**Tulki** - 5ta tovush 1-tovush [t] undosh tovush o'rni ko'k rangda, **Bolta**- 5ta tovush... mashq shunday davom ettiriladi.

**Daftар bilan ishlash: (10 daqiqa)**

Tt harfi ko'k rangga bo'yaladi.

Toshbaqa so'zining chizmasidan t harfining o'rni aniqlanadi va katak bo'yaladi.

Berilgan namunadan bosma Tt harfining bosh va kichik ko'rinishini avval nuqtalar ustidan so'ng o'zlari yozadilar.

**Darslik bilan ishlash: (10 daqiqa)**

1. *Topishmoqni o'qib javobini toping.*
2. *Rasmni ifodalovchi so'zlardan [t] tovushining o'rnini toping.*
3. *Rasm asosida chizmasiga mos gap tuzing. Unda Ot-hayvon nomi, ot-harakat yani koptokni ot ikkalasi ham bir xil yoziladi ammo har xil ma'noga ega.*

O'quvchilarning diqqati darslikdagi rasmga qaratiladi va quyidagi savollarni berish tavsiya etiladi.

-Rasmda qaysi shahar tasvirlangan?

-U qanday shahar?

-Siz bu shahar haqida nimalar bilasiz?

**Tinglab tushunish:** Toshkent haqida berilgan she'r o'qituvchi tomonidan yoki o'qishni biladigan o'quvchi tomonidan o'qib beriladi.

She'r asosida suhbat o'tkaziladi.

She'r nima haqida?

She'rda Toshkent haqida nima deyilgan?

**Daftар bilan ishlash: (3 daqiqa)**

1. *"Mosini top" o'yini .Unda berilgan rasmlarni ifodalovchi so'zlarni orasidan [t] tovushi bo'lsa shu rasmlarga ko'rsatkich chizing.*

**Darsga yakun yasash:**

*-Qanday tovush bilan tanishdingiz?*

*-Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*